

Real sektor korxonalari investitsion loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining rolini oshirish va kredit riskini hisobga olish masalalari

Sharipjon og‘li Ulug‘bek
Nodir G‘iyosaliyevich Xidirov
Toshkent moliya instituti

Annotatsiya: Maqolada real sektor korxonalari investitsion loyihalarini moliyalashtirishda bank kreditlarining ahamiyati, tadqiqot jarayonida bank kreditlarining iqtisodiyotdagi roli o‘rganilgan, tijorat banklari tomonidan investitison loyihalarni moliyalashtirishda kredit riskini hisobga olish masalalari va hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan ajartilyotgan investitsion kreditlar tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: real sektor korxonalari, investition loyiha, investition kredit, bank krediti, kredit riski, investitsion faoliyatni moliyalashtirish.

Issues of increasing the role of bank loans in financing investment projects of enterprises in the real sector and accounting for credit risks

Sharipjon ugli Ulugbek
Nodir Giyosalievich Khidirov
Tashkent Institute of Finance

Abstract: The article considers the role of bank loans in financing investment projects of real sector enterprises, the role of bank loans in the economy in the research process, the issues of credit risk in the financing of investment projects by commercial banks and investment loans currently issued by commercial banks.

Keywords: real sector enterprises, investment project, investment loan, bank loan, credit risk, financing of investment activities.

Kirish

O‘zbekiston va jahon iqtisodiyotining kelgusi taraqqiyoti, asosan, investitsiyalarga bog‘liqligini bugungi kunda inkor etib bo‘lmaydi. Shu boisdan, hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotida real sektor korxonalari faoliyatini moliyalashtirish, ularni faoliyatiga tijorat banklari kreditlarni, xususan, xorijiy moliya institatlari mablag‘larini kengroq jalb etish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan

birdir. Ma'lumki, iqtisodiy jihatdan faol bo'lgan har qanday korxona o'z moliyaviy resurslari hisobidan investitsiya loyihasini moliyalashtirishga har doim ham imkon topa olmasliklari mumkin. Bunday holatlarda, tijorat banklari kreditlari real sektor korxonalari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbai bo'lib maydonga chiqadi.

Tijorat banklarining kreditlari har bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydigan moliyalashtirish manbai hisoblanadi. Bank kreditlari yordamida iqtisodiyotning real sektori korxonalari faoliyatini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan investitsion xarajatlar moliyalashtiriladi va bu esa sanoat loyihalarini moliyalashitirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Tijorat banklarining kreditlash faoliyati, xususan real sektor korxonalarini kreditlash operatsiyalari bugungi raqobat kuchayib borayotgan sharoitda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur operatsiyalar banklarning asosiy daromad manbai bo'lishi bilan bir qatorda bank strategiyasini rivojlantirishda kundan kunga dolzarbliji ham oshib bormoqda. Tijorat banklarining real sektor korxonalariga kreditlar berish amaliyotini tashkil etish va uni takomillashtirish bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar, iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Xorijiy olimlardan O.Afanasevaning fikriga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda banklar uchun qisqa muddatli kreditlar berish uzoq muddatli investitsion kreditlar berishga qaraganda afzal bo'lib, yuqori daromadlilagini va past risk darajasi bilan ajralib turadi [1].

I.Yudinaning tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash amaliyotini rivojlantirishning zaruriy sharti – bu risklarni diversifikatsiya qilishdir [2].

"Uzoq muddatli kreditlarni moliyaviy injiniring vositasida yirik loyihalarni moliyalashtirishga jalb etish, foydalanish, tushum bilan bog'liq bo'lgan risklarni baholashga va risklarni investorlar hamda kredit beruvchilar o'rtasida taqsimlashga bog'liq" deya ta'kidlaydi E.Yeskombi [3].

Mahalliy olimlarimizdan T.Bobaqulovning fikriga ko'ra, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida monetizatsiya darajasining past ekanligi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi debitor-kreditor qarzdorlik muammosini chuqurlashtiradi. Bu esa, ularning pul oqimini zaiflashuviga olib keladi va tijorat banklarining investitsion kreditlaridan foydalanish darajasini oshirishga to'sqinlik qiladi [4].

Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, eng avvalo, iqtisodiyotning sanoat tarmog'ini jadal rivojlantirish zarur [10].

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning real sektoriga turlicha ta'rif beriladi va quyida biz ularning bir nechtasini ko'rshimiz mumkin. Jumladan quyidagi ta'riflarni keltirib o'tamiz:

1) iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiy va qonuniy belgilanmagan iqtisodiy atama hisoblanadi va ma'lum hududdagi faoliyati mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kichik, o'rta va yirik (industrial) korxonalarini birlashtiradigan iqtisodiyot sohasidir [9];

2) iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotda moddiy buyum mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, moddiy boylikni yaratuvchi va xizmat ko'rsatish sohalarini o'z ichiga oladigan soha. Real sektorga moliya-kredit va birja faoliyati kirmaydi [5];

3) iqtisodiyotning real sektori – bu iqtisodiyotning muhim sektori bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarish, daromad olish va byudjet daromadlari tushumini ta'minlaydi. Ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish sohasi uning iqtisodiy atama sinonimlari hisoblanadi [6].

Fikrimizcha, iqtisodiyotning real sektori – xom ashyo, mehnat va kapitaldan ajralmagan holda xizmat ko'rsatish, mahsulot va tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalardan iborat iqtisodiy sohadir. Iqtisodiyotda real sektorni samarali faoliyat yuritishida moliyaviy sektor muhim o'rinni egallaydi.

Sanoat korxonalarning investitsion faoliyatini moliyalashtirish tashqi yoki ichki manbalar orqali amalga oshiriladi. Investitsion faoliyatni tashqi moliyalashtirishning keng tarqalgan manbalari bank kreditlari, sindikatlashgan kreditlar, aksiya va obligatsiyalar emissiya qilish orqali mablag' jalb qilish hisoblanadi. Ichki manbalar sezilarli darajada kam bo'lib, ko'pincha ularning hajmi korxonalarning investitsiya faoliyatini moliyalashtirish uchun yetarli emas va bu esa tashqi moliyalashtirish manbalariga ehtiyojini oshiradi [7].

Jahonda integratsiya va globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi milliy iqtisodiyot oldiga bir qator yangi vazifalarni qo'ymoqda. Milliy iqtisodiyotning dunyo bozorida o'z o'rnini topishi, ya'ni ma'lum mavqeni egallashi uchun doimiy ravishda real sektor korxonalari investition loyihalarini moliyalashtirishdagi muammolarni hal qilib borish lozim. Ushbu muammolarni birinchi o'rinda tijorat banklari kreditlari orqali hal qilish mumkin.

Tahlil va natijalar

Respublikamiz iqtisodiyotining barqarorligi va uni rivojlantirish tijorat banklari faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Chunki ko'pchilik korxonalarga o'z faoliyatini boshlashi uchun mablag'lar zarur. O'z faoliyatini o'zgartirmoqchi yoki kengaytirmoqchi bo'lgan korxonalarga esa investitsion mablag'lar zarur. Respublikamizda tijorat banklari esa korxonalarini mablag' bilan ta'minlovchi asosiy investitsiya instituti hisoblanadi.


2020-yil davomida tijorat banklari tomonidan iqtisodiyot tarmoq korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiyalashga doir investitsiya loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun 276975 mlrd. so'm kreditlar ajratildi. Tarmoqlar kesimida kreditlarning taqsimoti quyidagicha bo'ldi [11]:

- 102162 mlrd. so'm (36,9 foizi) sanoat sohasiga;
- 28081 mlrd. so'm (10,1 foizi) qishloq xo'jaligi sohasiga;
- 26626 mlrd. so'm (9,6 foizi) transport va kommunikatsiya sohasiga,
- 7380 mlrd. so'm (2,6 foizi) qurilish sohasiga;
- 54888 mlrd. so'm (19,8 foizi) jismoniy shahslarga;
- 57838 mlrd. so'm (21 foizi) boshqa sohalarga.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida real sektor korxonalari investition loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarning roli yuqori hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyotni asosiy moliyalashtirish subyektlari tijorat banklar bo'lganligi sababli, ular o'zlarining investitsion kreditlarini real sektorning asosiy vositalarini yangilashga, ishlab chiqarish quvvatini oshirishga, kapital qo'yilmalarni yaratishga ajratadi. So'nggi yillarda bank tizimida olib borilgan islohotlar iqtisodiyotda kreditlarning rolini oshirishda muhim o'rinn tutib kelmoqda. Bu kabi olib borilayotgan islohotlar bank tizimida kreditlash tizimini yanada rivojlantirib, banklar tomonidan investitsion kreditlash hajmini oshishiga sabab bo'lmoqda.

So'nggi yillarda investitsion faoliyatni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda bank kreditlarining salmog'i oshib borayotganligi boshqa bozor mexanizmlariga asoslangan manbalarning ulushi esa juda kam salmoqli egallayotganligini guvohi bo'lamiz.

Agar biz so'nggi besh yilda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarga e'tibor qaratsak, quyidagi ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan jami ajartilgan va investitsion loyihalarga ajratilgan kreditlar, mlrd. so'mda [11]

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 2016-2020-yillarda tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarga ajratiladigan kreditlar o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni 2016-yilda ajratilgan kreditlar ham 12200 mlrd. so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2020-yilda kelib bu raqamlar 51900 mlrd. so‘mga yetgan.

Bundan ko‘rshimiz mumkinki, tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi faolligi so‘nggi yillarda jadallahib boryotganligini ko‘rshimiz mumkin.

Tijorat banklari kredit faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilishda birinchi navbatda ularda mavjud risklarni minimallashtirish masalalaridan biri kredit risklarini aniqlash, ularning ta’sir darajasini baholash va tahlil qilishdan iborat.

Kredit riski deb, qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi shartlarining bajarilmasligi, ya’ni kredit summasining (qisman yoki to‘liq) va u bo‘yicha foizlarning shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda to‘lanmasligi tushuniladi [8]. Shuning uchun kredit risklarini aniqlash va boshqarish har qanday tijorat bankining rivojlanish va taraqqiy etish maqsadiga erishish uchun ishlatiladigan kurash usullarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kredit riskining vujudga kelishi ikki asosiy parametr kredit beruvchi va qarz oluvchi o‘z vazifalarini qay darajada bajarishiga bog‘liq.

Real sektor korxonalari investitison loyihalarini tijorat banklari kreditlari orqali moliyalashtirishda ham, birinchi navbatda tijorat banklari tomonidan vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kredit riskini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Kredit riskining yuqori bo‘lishi, bank tomonidan real sektor korxonalari investitison loyihalarini moliyalashtirishda ehtiyotkor bo‘lishga olib keladi. Kredit risklarini tahlil qilish faqat qarz oluvchining moliyaviy holatini o‘rganishnigina, shuningdek bankning ichki faoliyatini yaxshilash uchun zarur axborotlar yig‘ish imkoniyatini ham yaratadi.

Xulosa va takliflar

Yurtimiz hududlarida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning turli sohalarida erishilayotgan yutuqlar, aynan real sektor tarmoqlarini hududlar miqyosida rivojlantirishga bo‘lgan e’tiborning yildan-yilga ortib borayotganligidan darak bermoqda. Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori korxonalari investitsion faoliyatini moliyalashtirish masalalariga keng e’tibor qaratish orqali sanoatni iqtisodiyotdagi ulushini oshirish imkoniyatiga egamiz. Shu maqsadda, tijorat banklari kreditlari orqali real sektor korxonalari investitision loyihalarini moliyalashtirish salmog‘ini oshirib borish quyidagi bir qator ijobjiy natijalarni ta’minlaydi:

- real sektor korxonalarida ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi va korxonlarning investition faolligi oshadi ;

- real sektor korxonalarining moliyaviy resurslarga ehtiyoji qondirilib, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash ta'minlanadi.

Bank muassasalari investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga mablag' ajratib, kredit bergen vaqtdan boshlab qarz oluvchining kreditga layoqatliligin tahlil qilish, kreditning maqsadli ishlatalishi ustidan nazoratni, ya'ni loyihani moliyalashtirishning monitoringini olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Real sektor tarmoqlarini rivojlantirishda investitsiya hajmini yanada oshirish, investorlar yangidan yangi investitsion loyihalarni taklif qilish, real sektor rivojida innovatsiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish va investitsiyalarni yo'naltirish, investorlar faoliyatining huquqiy himoyasini takomillashtirish, investitsiyalarni real sektor korxonalariga jalg qilish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga iqtisodiyot real va bank sektori o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ta'minlash orqali erishiladi. Bank tizimida to'plangan mablag'larni real sektor korxonalarini moliyalashtirishga yo'naltirish va ularning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Афанасьева О.Н. Состояние рынка проектного финансирования и факторы, сдерживающие его развития //Деньги и кредит. – Москва, 2014. №2. – с. 37
2. Юдина И.Н. Банковская система в развивающихся экономиках: опыт становления, развития и кризисов. Монография. – М.: “Инфра-М”, 2013. – с. 29.
3. Ескомб Э.Р. Принципы проектного финансирования. Пер. с англ. –М.: “Вершина”, 2008. – с.114.
4. Bobaqulov T.I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2008. –13-b.
5. Комов А. Анализ системы кредитования реального сектора экономики России в 1 полугодии 2004 г // Русское Экономическое Общество, 2004. №141, 7-8 с.
6. Xasanov R., Asatullayev X., Suvonqulov A., Xakimov X. Real sektor iqtisodiyoti va uni prognozlash. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-Moliya", 2013, 192-b.
7. Khidirov, N. (2020) "SPECIFIC FEATURES OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES," International Finance and Accounting: Vol. 2020: Iss. 1, Article 31. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss1/31>

8. Fozilchayev Sh.Q., Xidirov N.G'. Moliyaviy risklar nazariyasi. O'quv qo'llanma . –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. - 24-b. <http://ebook.tsue.uz/public/ebooks/moliyaviy-risklar-nazariyasi>
9. Maximov N.M., Hakimov H.A. Makroiqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. - T.: “Iqtisodiyot, 2019. – 25-b.
10. Khidirov, N.G. METHODS AND MECHANISMS OF FINANCING INVESTMENT ACTIVITIES IN INDUSTRIAL ENTERPRISES // International Journal of Economics, Commerce and Management. – United Kingdom, 2020. Volume 8, Issue 7, 310-325 p. https://www.researchgate.net/publication/352364091_International_Journal_of_Economics_Commerce_and_Management_MECHANISMS_AND_METHODS_OF_FINANCING_ENTERPRISE_INVESTMENT_PROJECTS
11. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti ma'lumotlari.
12. Khidirov, N.G. Mechanisms and methods of financing enterprise investment projects // Journal of Economics, Finance and Management Studies. – USA, 2021. Volume 4, Issue 05. 475-482 p. e DOI: 10.47191/jefms/v4-i5-16
13. Karimova G. A. Qobulov X.A. Banklarning raqamli xizmatlari turlari va ularning ommabopligrini oshirish masalalari //Интернаука: электрон. научн. журн. – 2021. – Т. 45. – №. 190. – С. 76-77.
14. Isroilova Y. R., Qobulov X. A. Tashqi savdoni rivojlantirishda xalqaro hisob-kitob shakllaridan foydalanishning ahamiyati //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1068-1072.
15. Khotamjon, Qobulov Associate Professor (2020) "ON THE MATTERS OF THE INVESTMENT FACTOR OF INCREASING THE INCOME POTENTIAL OF THE REGION," International Finance and Accounting: Vol. 2020 : Iss. 5 , Article 23.